

MUALLIFLIK HUQUQI SOHASIDA INTERAKTIV XIZMAT KO'RSATISHNING HUQUQIY TABIATI VA GENEZISI

To'xtayev Vahob Oripovich

3-darajali yurist. Ish joyi: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Yuridik bo'lim boshlig'i, Email: vahob.tukhtaev@bk.ru.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mualliflik huquqi sohasida interaktiv davlat xizmatlarining vujudga kelishi, shakllanish bosqichlari, ularning huquqiy tabiati, xalqaro huquqiy manbalardagi o'rni hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida ahamiyati yoritiladi. Raqamli transformatsiya jarayonida intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish, monitoring qilish, ruxsatnomalar berish va huquqni muhofaza qilish tizimlari tobora ko'proq onlayn shaklga o'tayotgani ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, interaktiv xizmatlarning afzalliklari, xavflari, takomillashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *mualliflik huquqi, interaktiv davlat xizmatlari, raqamli transformatsiya, intellektual mulk, elektron xizmatlar, huquqni muhofaza qilish, xalqaro tajriba.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются возникновение и этапы формирования интерактивных государственных услуг в сфере авторского права, их правовая природа, место в международных правовых источниках, а также их значение на основе передового зарубежного опыта. Научно анализируется, как в условиях цифровой трансформации процессы регистрации объектов интеллектуальной собственности, мониторинга, выдачи разрешений и обеспечения правовой защиты все более переходят в онлайн-формат. Кроме того, рассматриваются преимущества и риски интерактивных услуг, а также направления их дальнейшего совершенствования.*

Ключевые слова: *авторское право, интерактивные государственные услуги, цифровая трансформация, интеллектуальная собственность, электронные услуги, правовая защита, международный опыт.*

Annotation: *This article analyzes the emergence and development stages of interactive public services in the field of copyright, their legal nature, their place within international legal frameworks, and their significance based on leading foreign experience. The study examines how digital transformation influences the processes of registering intellectual property objects, monitoring, issuing permits, and enforcing rights, which are increasingly shifting to online formats. In addition, the article discusses the advantages, potential risks, and avenues for improving interactive services.*

Keywords: *copyright, interactive public services, digital transformation, intellectual property, electronic services, rights protection, international experience.*

KIRISH

Global axborotlashuv jarayoni va davlat boshqaruvida raqamli transformatsiya, barcha sohalarda bo'lgani kabi, mualliflik huquqi institutining rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish, huquqlarni rasmiylashtirish, ularni himoya qilish, monitoring qilish va huquqbuzarliklarni aniqlash jarayonlari tobora ko'proq interaktiv xizmatlar orqali amalga oshirilmogda.

Mualliflik huquqi sohasida interaktiv xizmatlar — bu davlat organlari tomonidan mualliflar, noshirlar, litsenziatlar va boshqa foydalanuvchilarga elektron shaklda, real vaqt tartibida ko'rsatiladigan xizmatlar bo'lib, ular an'anaviy qog'oz shaklidagi jarayonlarni optimallashtirish, tezlashtirish va soddalashtirishga xizmat qiladi.

Maqolaning dolzarbligi — raqamli iqtisodiyot sharoitida mualliflik huquqi sohasida e-xizmatlarning huquqiy asoslari, ularning samaradorligi va xalqaro tendensiyalardagi o'rnini ilmiy tahlil qilish zaruratidan kelib chiqadi.

Interaktiv xizmatlar — bu davlat organlari xizmatlaridan foydalanishda real vaqt rejimida axborot almashinuvi, hujjatlarni qayta ishlash va natija olish imkonini beruvchi elektron platformalardir. O'zbekiston Respublikasining “Raqamli hukumat to'g'risida”gi Qonuniga ko'ra, interaktiv xizmatlar fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga huquqiy ahamiyatga ega jarayonlarni elektron shaklda amalga oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ushbu masalada o'zbek ilmiy va huquqiy adabiyotida “interaktiv xizmat ko'rsatish” tushunchasi to'g'ridan-to'g'ri mualliflik huquqi nazariyalarida kamroq alohida o'rganilgan. Ko'pchilik olimlar mualliflik huquqi, mulkiy huquqlar, xizmat asarlari va cheklangan foydalanish institutlari orqali tahlil yuritishadi. So'ngi yillarda mamlakatimizda mualliflik huquqiga alohida e'tibor berilishi, uni himoya qilish usullarini takomillashtirish masalasini ham oldingi o'ringa olib chiqdi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida mualliflik huquqining nazariy fundamental asoslari yartilgan bo'lib asosiy hal etilishi lozim bo'lgan vazifa oxirgi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ya'ni interaktiv davlat xizmatlari orqali mualliflar yaratgan ijod namunalarini himoya qilishning oson qulay va arzon usullarini joriy qilishdir.

Shu o'rinda, huquqshunos B. Toshevning “Yurist axborotnomasi” jurnalida chop etilgan maqolasida mualliflik huquqi shartnomalarining rolini ta'kidlaydi. U mualliflik shartnomalari mualliflik huquqini himoya qilishning eng keng tarqalgan shakli ekanligini bildirgan. Agar interaktiv xizmatda ishlatiladigan kontent bo'lsa, mualliflik shartnomalari

(litsenziya shartnomalari) ayniqsa muhim bo'ladi — interaktiv platformalar va foydalanuvchilar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar shu shartnomalar orqali tartibga solinadi.

Ya'ni interaktiv platformalarning bugungi kundagi ahamiyati haqida gapirilganda minglab yaratilayotgan ijod namunalarining himoya qilinishi hamda ijodiy muhitning rivojlanishiga qo'shimcha motiv bo'lishiga alohida urg'u berilmogda.

Ushbu maqolada ham mualliflik huquqini himoya qilishning eng zamonaviy usullaridan biri bo'lgan interaktiv xizmatlarning turlari, shakllari va ularning nechog'lik muhimligi yuzasidan fikr yuritiladi va bu masala yuzasidan olim va mutaxassislarining fikrlari ham muhokama maydoniga olib chiqiladi.

Mualliflik huquqi sohasida interaktiv xizmatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

mualliflik huquqi obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish;

huquq egalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilash;

ruxsatnomalar va litsenziyalar berish;

huquqbuzarliklar monitoringi;

elektron dalolatnomalar shakllantirish;

huquqni muhofaza qilish organlariga onlayn murojaat yuborish.

Mualliflik huquqi bo'yicha elektron xizmatlar quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonun;

“Elektron hujjat aylanishi to'g'risida”gi Qonun;

“Elektron raqamli imzo to'g'risida”gi Qonun;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qarorlari;

Intellektual mulk agentligi tomonidan tasdiqlangan elektron xizmat reglamentlari.

Huquqiy nuqtai nazardan, interaktiv xizmatlar elektron shaklda huquqni vujudga keltiruvchi, uning o'zgarishini rasmiylashtiruvchi yoki huquqiy natija beruvchi jarayon sifatida qaraladi. Yuqoridagi normativ-huquqiy asoslar mualliflar va ularning huquqlarini himoya qilishga yetarli hisoblansada biroq mualliflar tomonidan yaratilgan asarlarning ro'yxatdan o'tkazish, boshqa shaxslar tomonidan noqonuniy egallab olinishiga jiddiy to'siq bo'la olmaydi.

Shu sababli, huquq professori Said G'ulomov “Intellectual Property in the Digital Age: Rethinking IP Law in the Era of Artificial Intelligence” kitobida raqamli davrdagi mualliflik huquqi muammolari, shu jumladan interaktiv kontent va sun'iy intellekt bilan bog'liq yangi tahdidlar va paradigmalar tahlil qilib, O'zbekistonda huquqshunoslar interaktiv raqamli xizmatlar (platformalar, kontent oqimi, AI generatsiyalangan asarlar) bilan mualliflik huquqining klassik tushunchalarini qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj bor ekanligini ta'kidlaydi.

Bu shuni anglatadiki, zamonaviy dunyoda ijod qilish va uni himoya qilish kundan kunga murakkablashib bormoqda ayniqsa sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratilishi ushbu jarayonni bir tomondan yangi bosqichga olib chiqqan bo'lsa boshqa tomondan ijod erkinligiga tahdid sola boshladi.

Ya'ni endi sun'iy intellekt yordamida ijod namunalari tez yaratilishi mumkin ammo sifat jihatdan shaxslarni chalg'itish ya'ni asar muallifi haqiqiy inson yoki texnologiya ekanligi orasida tushunmovchiliklar yuzaga kela boshladi.

Umuman olganda, interaktiv mualliflik xizmatlari 1990–2000 yillarda rivojlangan davlatlarda shakllana boshlagan:

AQSH — 1996-yildan boshlab Copyright Office onlayn ro'yxatga olish tizimini bosqichma-bosqich joriy qildi. 2007-yilda Electronic Copyright Office (eCO) ishga tushdi.

Yevropa Ittifoqi — 2001-yilda qabul qilingan InfoSoc Directive asosida raqamli muhofaza tizimi shakllantirildi. Keyinchalik, 2019-yilda DSM Directive bilan raqamli davr huquqlari yanada kengaytirildi.

Janubiy Koreya — 2000-yillarning boshidan K-Copyright tizimini joriy etib, internetdagi kontent monitoringini avtomatlashtirdi.

Yaponiya — ro'yxatdan o'tkazish va muhofaza jarayonlari to'liq elektron shaklga o'tkazilgan (Copyright Information Circular).

O'zbekistonda esa bu yo'nalishning rivojlanish bosqichlarini soddalashtirib quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

2005–2017 yillar — intellektual mulk bo'yicha ilkin elektron ma'lumot bazalari shakllantirildi.

2018–2020 yillar — Davlat xizmatlari markazlari orqali ayrim xizmatlar soddalashtirildi, onlayn platformalar uchun huquqiy asoslar mustahkamlandi.

2020–hozirga qadar — “Elektron intellektual mulk” tizimi shakllanib, mualliflik huquqi obyektlarini elektron ro'yxatdan o'tkazish to'liq raqamlashtirildi. Biroq, bu yerda muhim bir savol tug'iladi ya'ni mualliflik huquqi obyektlari interaktiv xizmatlar orqali ko'rsatilsa yoki yaratilsa undan foydalanish masalasi ham muhim hisoblanadi. Bundamuallif va interaktiv xizmat o'rtasida foydani bo'lish masalasi ham dolzarb hisoblanadi.

Ushbu masalani Nazira Turakulova “Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish” nomli maqolasida O'zbekistonda mualliflik huquqining mulkiy jihatlari (royalty, litsenziyalash va tarqatish) bo'yicha jamoaviy boshqaruv institutini tahlil qilish orqali ochib berishga harakat qilgan. Bu nuqtai nazardan, xususan, interaktiv xizmatlar (masalan, onlayn platformalar) orqali foydalanuvchilar va mualliflar o'rtasidagi munosabatda mulkiy huquqlarni boshqarish va daromad taqsimoti qanday amalga oshirilishi mumkinligi aniqlash muhim hisoblanishini ta'kidlaydi.

Maqoladagi fikr bugungi kunda dolzarb hisoblanib normativ asoslarsiz onlayn platformalarda yartilgan va undan foydalanish imkonsiz hisoblanadi.

Shu bilan birga, mualliflik huquqi sohasidagi e-xizmatlar quyidagi huquqiy imkoniyatlarni yaratadi:

- huquqlarning ishonchli tasdiqlanishi;
- mualliflik obyektini tezkor rasmiylashtirish;
- huquqbuzarlik sodir bo'lganda elektron dalillarni shakllantirish;
- shaffoflikni ta'minlash;
- davlat xizmatlari ustidan nazoratning kuchayishi.

Interaktiv xizmatlar:

mualliflarning vaqtini va mablag'ini tejaydi;

ijodiy faoliyatni rag'batlantiradi;

ilm-fan, texnologiya va san'at sohalarida innovatsiyalarni

qo'llab-quvvatlaydi;

davlat organlarining ish faoliyatini optimallashtiradi.

Interaktiv xizmatlarning ijobiy jihatlari quyidagilardan iborat:

tezkorlik va qulaylik - elektron ro'yxatdan o'tkazish an'anaviy qog'oz shaklidan bir necha barobar tez. Bunda ariza topshirish, to'lovlar va natija olish onlayn amalga oshiriladi;

shaffoflik - jarayonlar ochiq bo'lib, har bir bosqichni foydalanuvchi kuzatishi mumkin;

huquqiy dalillar tizimi - elektron raqamli imzo va elektron hujjatlar sud jarayonlarida muhim dalil bo'lib xizmat qiladi;

xizmatlarning uzluksizligi - hududiy cheklovlarga qaramay, respublikaning istalgan hududidan xizmatlar ko'rsatiladi.

Interaktiv xizmatlarning salbiy jihatlari quyidagilardan iborat:

kiberxavfsizlik xavflari - mualliflik obyektlari ko'pincha tijoriy ahamiyatga ega bo'lgan maxfiy ma'lumotlardir. Ularning elektron shaklda saqlanishi kiberxavflarni kuchaytiradi;

raqamli tafovut - internetga kirish imkoniyati bo'lmagan shaxslar xizmatlardan foydalanishda qiynaladi;

o'quv savodsizligi - ba'zi foydalanuvchilar elektron platformalardan foydalanishni bilmasligi tufayli xizmatlar samarasiz bo'lishi mumkin;

texnik nosozliklar - serverlar ishdan chiqsa yoki tizimda texnik muammolar kuzatilsa, jarayon sekinlashadi yoki to'xtaydi.

Interaktiv xizmatlarni ko'rsatishda bir qator xalqaro tajribalarni keltirish mumkin.

AQSH tajribasi (eCO – Electronic Copyright Office) AQSH mualliflik huquqi tizimi dunyoda eng rivojlanganlardan biri bo'lib, asosiy xususiyatlari:

elektron huquqlarni ro'yxatga olish tizimi;

keng qamrovli elektron kutubxona;

onlayn to'lovlar;

internetdagi huquqbuzarliklar monitoringi;

ochiq ma'lumotlar portali.

Yevropa Ittifoqi tajribasi YI davlatlarida mualliflik huquqi bo'yicha yagona raqamli bozor konsepsiyasi joriy etilgan:

raqamli kontentni himoya qilish;

DSM (Digital Single Market) direktivalari asosida onlayn xizmatlar standartlashtirilgan;

mualliflik huquqlari bo'yicha transmilliy e-platformalar mavjud.

Xitoy tajribasi - Xitoyning avtomatlashtirilgan intellektual mulk monitoring tizimi (China Copyright Protection Center):

sun'iy intellekt yordamida internetdagi kontentlarni nazorat qiladi;
onlayn ro'yxatga olish;
raqamli himoya vositalari (DRM).

Janubiy Koreya tajribasi - K-Copyright tizimi:

avtomatlashtirilgan paydo bo'lish sanasi tasdiqlash;
internetdagi huquqbuzarliklar real vaqt monitoringi;
litsenziyalash va kompensatsiya jarayonlari raqamlashtirilgan.

Interaktiv xizmatlarni rivojlantirishning kelgusidagi istiqbollari quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

Sun'iy intellektdan foydalanish:

plagiatni aniqlash;
avtorizatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish;
huquqbuzarliklarni erta aniqlash.

Blockchain texnologiyasi:

mualliflik obyektlarining yaratilgan vaqtini o'zgartirib bo'lmaydigan tarzda qayd etish;

huquqning uzatilisini avtomatik ro'yxatga olish.

Xalqaro integratsiya:

WIPO IPAS tizimi bilan uzviy integratsiya;
elektron transchegaraviy mualliflik huquqi tizimlari.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki mualliflik huquqi sohasida interaktiv xizmatlar davlat xizmatlarining yangi avlodini anglatadi va ular:

huquqiy jarayonlarni soddalashtiradi;
vaqt va resurslarni tejaydi;
ijodkorlarni qo'llab-quvvatlaydi;
davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlaydi;
xalqaro integratsiyani kuchaytiradi.

Shu bilan birga, kiberxavfsizlik, texnik barqarorlik va raqamli savodxonlik kabi muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish interaktiv xizmatlarning samaradorligini oshiradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mualliflik huquqi bo'yicha interaktiv xizmatlar tizimi davlatning innovatsion rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib, uning huquqiy asoslari va texnologik infratuzilmasini takomillashtirish kelgusi yillarda ham dolzarbligicha qoladi. Ammo, bir qator ijobiy tomonlari bilan birgalikda mualliflik huquqida interaktiv xizmatlarni joriy qilishda huquqiy poydevorni yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, ayni shu holat mualliflarning o'zlari yaratgan asarlarga to'la va xavfsiz ega bo'lishlarini kafolatlashi va ushbu huquqlar buzilganda javobgarlik muqarrar ekanligini his qilgandagina mualliflik huquqi subyektlari erkin ijod muhiti yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Intellectual Property Organization. (1996). WIPO Copyright Treaty (WCT).
2. World Intellectual Property Organization. (1996). WIPO Performances and Phonograms Treaty (WPPT).
3. World Intellectual Property Organization. (2020). WIPO PROOF: A Global Digital Evidence Service Report. Geneva: WIPO.
4. United States Congress. (1998). Digital Millennium Copyright Act.
5. European Parliament. (2019). Directive (EU) 2019/790 on Copyright in the Digital Single Market.
6. Samuelson, P. (2000). Digital copyright and the DMCA: Perspectives and legal analysis. *Berkeley Technology Law Journal*, 15(2), 519–573.
7. Ginsburg, J. (2013). International copyright law in the digital age. *Columbia Law Review*, 113(4), 1029–1101.
8. Seng, D. (2018). Electronic copyright registration: Legal and practical implications. *Journal of Intellectual Property Rights*, 23(3), 145–154.
9. O‘zbekiston Respublikasi. (2015). Elektron hukumat to‘g‘risidagi Qonun.
10. O‘zbekiston Respublikasi. (1996, tahrirda). Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi Qonun.